

ILMIY-TEXNIKA JURNALI



Scientific - technical journal

Научно-технический журнал
Ферганского
политехнического
института

2023. СПЕЦ. ВЫПУСК № 2

ISSN 2181-7200

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ТАЪЛИМ, ФАН
ВА ИННОВАЦИЯЛАР ВАЗИРЛИГИ

ФАРҒОНА ПОЛИТЕХНИКА ИНСТИТУТИ

И Л М И Й – Т Е Х Н И К А Ж У Р Н А Л И



2023. СПЕЦ. ВЫПУСК №2

**НАУЧНО–ТЕХНИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ ФерПИ**

**SCIENTIFIC –TECHNICAL
JOURNAL of FerPI**

ФАРҒОНА – 2023

Rasulov A.X. Tadqiqot va ishlanmalarda barqarorlikni ta'minlashda sun'iy intellektni qo'llanilishi	192
Zokirov S.I., Raxmatova G.M. Ta'limning zamonaviy muammolari: gibrid ta'lim formatini qo'llash imkoniyatlarini tahlil qilish	197
Xonto'rayev S.I., Nabijonov R.M. Oliy ta'lim muassasalarida web resurslarda mavjud dasturiy, texnik va uslubiy muammolarni barataraf etish	201
Dilshodov A.D., Xayitboyev E.I., Muhammadjonov S.R. Fizika fani bo'yicha talabalarning ilmiy-tadqiqot faolligini oshirishda tracker ilovasidan foydalanish	207
ҚИСҚА ХАБАРЛАР	
Мовлонов П.И. Cu _{2-x} S-CdS гетероўтишнинг энергетик зона диаграммаси	213
Tolipov N.I. Doiraviy sektorda laplas tenglamasi uchun qo'yilgan ichki chegaraviy masala	215
Тулакова С.Р., Рахмонов Т.И. Оптик толада дисперсия	216
Мирзажанов М.А., Абдуллаев Ж.С., Мовлонов П.С. Cu _{2-x} S – CdS гетероструктурали бирикманинг CdS асосин легирлаш хусусияти	220
Хайдаров А.А., Абдурахмонов С.М., Ф.М. Мухтаров Термик ишлов беришни поликапроамид айрим физик-механик хоссаларига таъсири	222
Эргашев С.Ф., Хасанова М.Ю. Қуёш термоэлектр генераторининг иссиқлик қабул қилувчи-иссиқлик трубагининг иссиқлик ўтказувчанлигини ҳисоблаш	225
Mirzakarimov B.A., Yuldashev U.J. Bank faoliyati samardorligini oshirishda CRM tizimining o'rni	228
Sabirov S.S., Ibroximova N.P. Radiatsion nuqsonlarning γ -kvanti bilan nurlangan Si <Pt> da toblanish kinetikasi o'rganilgan	231
Zulunov R.M., Kayumov A.M. Sun'iy intellektning ta'lim jarayonidagi rollari	233
Husaynova M.M., Lutfiddinov Z.B. Sun'iy intellekt va neyron tarmoqlarining hozirgi kundagi ahamiyati	237
To'xtasinov D.F., Raxmatov R.R. Elektromobillar va boshqa qurilmalarda akkumulyatorlardan samarali foydalanish tadqiqi	241
Abdullaev T.M., Alimjonova A.Sh. Qishloq xo'jaligida sun'iy intellekt texnologiyalari yordamida quyosh nurlanishidan foydalanish	245
Улжаев Э., Абдулхамидов А.А. Техник ko'rish yordamida paxta butasining kengligini aniqlash va matematik asoslari	248
Abdukadirov A.G. Axborot xavfsizligini ta'minlash uchun eratosfen panjarasidan foydalanishning zamonaviy usullari	252
Muxtarov F.M., Ergashev O.I., Sobirov M.M. Toifalangan ob'ekt uchun yangi yaratilgan axborot xavfsizlik tizimini texnik-tashkil etish va uni taqqoslash	255
Xonto'rayev S.I., Kodirov E.S. Sun'iy neyron tarmoqlari va ularning qo'llanilishi	258
Мамадалиев Н.А. Телевизион tasvirlarni qayta ishlash jarayonida ziddiyatli vaziyatlarni simulyatsiya qilish	262
Носиров Х.Х., Норинов М.У. Телевизион tasvirларга ишлов бериш жараёнидаги вейвлет ўзгартириш усуллари	265
Abdullayev A., Abduxalilov B. Z., Gafurov Yu.I. IT-provayderning xizmatlar portfeliini raqobatbordosh boshqaruv tizimlarini ishlab chiqish usullarining asoslari	268
Burxonova M.M. Noravshan to'plamlar nazariyasi va uni yuzlarni tanib olish sohasida qo'llash masalasi	272
Djalilov M.L., Mirkomilov D.M. Maple dasturi yordamida t'ylqin tenglamasini yechish	275
Райимжоновна О.С., Тургунов Б.А. Яримўтказгичларда кластер типдаги бир жинсли эмаслик ҳолатини тадқиқ қилиш	278
Iskandarov U.U. Alesis SR-16 ritm blokingni tovush hosil qilishini va uni tuzatish hamda mahalliy sharoitlarda qo'llash jihatlarini tadqiq etish	281
Dalibekov L.R. AFK elementlarini optoelektronikada qo'llanilishini yangi istiqbollari	283
Райимжоновна О.С., Тургунов Б.А., Эргашев Ш.У. Юпқа пардали оптронлар ва оптоэлектрон қурилманинг самарадорлигини ошириш	286
Abduraxmonov S.M., Tillaboev A.A. Issiqlik bilan ta'minlash qozonlar uchun energiya tejamkor avtomatlashtirilgan boshqarish tizimlarini loyixalash va joriy etish	289
Muxtarov F.M., Turdimatov M.M., Mo'minova M.M. Yoshlarni kiberjinoyatlardan ximoyalash va ularni bartaraf etish usullari	292
Кочкорова Г.Д. Дунёни ўзгартирадиган таълим технологиялари	296
Qodirov X.A. Fizika fanining magnetizm bo'limini o'qitishda innovatsion metodlardan foydalanish	298
Maniyozov O.A., Bozorqulov A.A. Mulohazalar va matritsalarining o'zoro bog'lanishi	302
Zokirov S.I., Pulatov G'.G. Intensiv bog'larning xosildorligini matematik tahlil qilish tizimi	305
Ergashev S.S. Chegaraviy hisoblash ilovalari uchun chuqur o'rganishda zamonaviy yondashuv	309
Maxmudov N.M., Khoitkulov A.A. Sanoat iqtisodiyotidan raqamli iqtisodiyotga o'tish bosqichlari	312
Муаллифлар диққатига !	316

эффект. Источниками такого эффекта оказываются, в первую очередь, более полное и целенаправленное использование образовательного потенциала конкретных дидактических средств, а также повышение мотивации обучающихся к применению инновационных технологий и возможность построения и реализации индивидуальных образовательных траекторий. В то же время, создание подобных – гетерогенных по структуре и гибридных по содержанию – многокомпонентных образовательных сред сопряжено с определенными сложностями, обусловленными необходимостью значительных финансовых затрат, недостаточной развитостью инфраструктуры образовательных организаций, а также консервативностью и недостаточной подготовленностью многих преподавателей к применению инновационных форм организации образовательного процесса. Тем не менее, развитие общества не остановить, и создание многокомпонентных образовательных сред – одно из стратегических направлений модернизации образовательной системы в целом.

Список литературы

- [1]. А.А.Махкамов, С.С.Жуманазаров, М.П.Машарипов. Педагогические программные средства в образовательном процессе / УОМ, Т: 2018
- [2]. 2.С.И.Закиров 2x2. DGU05597 официальный вестник Агентства по интеллектуальной собственности Республики Узбекистан. 2-Том, 225-226 с, 2018.
- [3]. 3.С.И.Зокиров. Технология и программные средства создания электронных учебных пособий в игровой форме / МД., Фергана: 2013
- [4]. Зокиров С., Рахматова, Г. (2023). Использование компьютерных игр в современном образовании: проблемы и решения: Использование компьютерных игр в образовании. Engineering problems and innovations, 1(1), 27-34
- [5]. Азамхонов, Б.С., Бурханова, М.М.(2023). Олий ўқув юрти талабаларининг ахборот компетенциясини шакллантириш усуллари. Талкин ва тадқиқотлар илмий-услубий журналы, 1 (17), 308-311.
- [6]. Суюмов Ж. Ю. (2021). Theoretical basis of active teaching technology on the basis of computer imitation models. Academicia aninternational multidisciplinary research journal. (7), 205-210
- [7]. Дилшодов, А. (2021). Use of Computer Modeling in the Development of Research Skills in Physics. ACTA NUUZ. 77-81.
- [8]. Дилшодов, А. (2021). Concept of Development of Research Opportunities in Teaching Data Physics of Schools. Scientific Bulletin of Namangan State University. (9), 410-415
- [9]. Горовик, А. А., Мулайдинов, Ф. М., & Лазарева, М. В. (2018). Дистанционное образование как необходимое средство обучения в условиях современной экономики Узбекистана. Цифровой регион: опыт, компетенции, проекты (с. 122-125).

OLIJ TA'LIM MUASSASALARIDA WEB RESURSLARDA MAVJUD DASTURIY, TEXNIK VA USLUBIY MUAMMOLARNI BARATARAF ETISH

S.I. Xonto'rayev, R.M. Nabijonov

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Farg'ona filiali
([Qabul qilindi 16.02.2023 y.](#))

Xozirgi kunda mediaportallardan ko'plab insonlar keng tarzda foydalanmoqda. Mediaportallar yaratishda web resurslarda bir qancha muammoli vaziyatlarga duch kelish kuzatilmoqda. Maqolada web resurslarda mavjud dasturiy, texnik va uslubiy muammolar va ularni bartaraf etish choralari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Bunday muammolarni o'rganishda asosan CMS texnologiyasiga asoslanib yaratilgan web resurslar ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: web resurs, CMS, Joomla, WordPress, DataLife Engine, meta keywords, kodirovka, HTML, Giperhavola.

Nowadays, the mediaportals is widely used by many people. When creating media portals, web resources face several problematic situations. The article provides information about software, technical and methodological problems and measures to eliminate them. In the study of such problems, web resources created based on CMS technology were considered

Keywords: web resource, CMS, Joomla, WordPress, DataLife Engine, meta keywords, encoding, HTML, Hyperlink.

В настоящее время медиапорталы широко используются многими людьми. При создании медиапорталов разработчики веб-ресурсов сталкиваются с рядом проблемных ситуаций. В статье представлена информация о программных, технических и методологических проблемах и мерах по их устранению. При исследовании подобных проблем рассматривались веб-ресурсы, созданные на базе технологии CMS.

Ключевые слова: веб-ресурс, CMS, Joomla, WordPress, DataLife Engine, meta keywords, кодировка, HTML, гиперссылка.

Yaratilayotgan web resurslarining aksariyat rasmiy web saytlar, firma va korxonalarning tashrif saytlari, multimediya portallari va ijtimoiy tarmoqlar tashkil etmoqda. Mamlakatimizdagi web saytlarning soni kundan kuniga oshib borishiga qaramay ta'lim xarakteriga oid bo'lgan web saytlar ko'p miqdorni tashkil etmaydi. Ta'lim xarakteriga oid bo'lgan onlayn resurslar qanchalik ko'p bo'lsa, respublikamiz olimlari va tadqiqotchilarining innovatsiya va ixtirolaridan respublika ahli xabardor bo'ladi. Qolaversa, bunday saytlar yordamida jahon professor-o'qituvchilari bilan fikr almashish hamda o'zaro hamkorlik qilish imkoniga ega bo'lamiz [1].

Ta'lim xarakteriga ega bo'lgan web resurslari tarkibiga masofaviy ta'lim tizimlari, axborot ta'lim tarmoqlari, elektron kutubxonalar, ilmiy portallar va boshqa ta'limga oid bo'lgan web saytlar kiritish mumkin [2].

Web resurslardan foydalanish jarayonida ba'zi bir muammo va xatoliklar duch kelish holati kundan kuniga ortib bormoqda. Yuzaga kelayotgan muammo va xatoliklar quyidagi uch turda bo'lishi mumkin:

- ✓ Dasturiy muammolar
- ✓ Texnik muammolar
- ✓ Uslubiy muammolar [3]

Web resurslardan foydalanishda eng ko'p uchraydigan muammolar bu dasturiy muammolardir. Dasturiy muammolar saytni yaratish jarayonida yuzaga keladi. Dasturiy muammolar web resursni yaratishda qancha ko'p dasturiy vositalardan foydalanilsa shunchalik ko'p yuzaga keladi. Web saytlarning dasturiy muammolari yuzaga kelishida albatta dasturchilarning xissalari juda katta. Chunki, web dasturchilarimiz sayt yaratishda sayt loyihasini to'g'ri tuzmagan yoki osongina CMS (Control Manager System) texnologiyalaridan foydalanishmoqda. Bu texnologiya asosida sayt yaratish uchun 1-2 soat kifoya. Lekin, dasturchilar Joomla, WordPress, DataLife Engine kabi bepul tarqatiluvchi CMS texnologiyalardan foydalanib o'z loyihalarini xatarga qo'yimoqdalar [4]. CMS texnologiyasi asosida yaratilgan web saytlarga biror-bir yangi imkoniyat qo'shish talab etilsa (informer, teglar buluti, galereya, ijtimoiy tarmoqlarga bog'lanish tugmalari va h.k), shu turdagi texnologiyaga ushbu imkoniyatni beruvchi modul va komponenta yaratilishi kerak bo'ladi. Shunindek, bu texnologiyaning asosida yaratilgan saytlarning negizi bir xilligi sababli, web saytlarga taxdidlar ham ko'proq kuzatiladi. Chunonchi, Joomla CMS texnologiyasi asosida yaratilgan UZ domenidagi bir qancha saytlarga xurujlar 2009, 2010 va 2013 yilda ham kuzatildi [5].

Dasturiy muammolari.

Qidiruv tizimlari yordamida Web sayt yoki Web sayt sahifasi topilmaganda. Bilamizki, jahon qidiruv tizimlari orqali har qanday saytlardagi ixtiyoriy ma'lumotlarni qidirib topish imkoniyati mavjud. Biroq, ba'zi bir saytlardagi ma'lumotlarni Google, Yandex, Yahoo, Apport va boshqa qidiruv tizimlari orqali so'rov berilganda bizga kerak bo'lgan ma'lumotni topa olmaymiz, garchi bunday ma'lumot saytda mavjud bo'lsa ham. Buning sababi esa sayt yaratilish jarayonida meta description va meta keywords kabi parametrlarga e'tibor berilmaganligidir[6].

- ✓ *meta keywords* – bu qidirilayotgan so'z yoki jumlaning kalit so'zi bo'lib, u web saytdagi ma'lumot joylashgan sahifaning <head>...</head>tegi tarkibida berilgan bo'lishi kerak. Agar sayt boshqaruv paneliga va ma'lumotlar omboriga ega bo'lsa, sahifa yoki ma'lumotni kiritish jarayonida *meta keywords* uchun ma'lumotlar omborining tegishli jadvallarida alohida qator ajratilishi lozim[7].

- ✓ *meta description* – bu qidirilayotgan soʻz yoki jumlaning tavsifi hisoblanadi. Qidiruv tizimlari yordamida topilgan maʼlumot ostida qidirilayotgan obʼyekt boʻyicha qisqacha axborot hisoblanadi. Umuman olganda *meta description* *meta keywords* ning taʼrifi hisoblanadi. *meta description* ham web saytdagi maʼlumot joylashgan sahifaning `<head>...</head>` tegi tarkibida berilgan boʻlishi kerak. Bu parametr uchun ham maʼlumotlar omborining tegishli jadvalarida alohida qator ajratilishi talab etiladi [7].

Web saytlarning yaratilishida bu ikki parametr toʻliq va toʻgʻri berilsa, foydalanuvchiga zarur boʻlgan maʼlumotlarni qidirib topish oson boʻladi va web saytning foydalanuvchilar auditoriyasi kengayishiga olib keladi. Ushbu muammoni yechimi sifatida CodeIgniter tizimida namunaviy portal yaratildi [8].

Web sayt va uning sahifalari matnlari oʻqib boʻlmaydigan holatda aks etsa. Bilamizki, odatda Web saytlar maʼlumotlari maʼlumotlar omborida saqlanadi. Maʼlumotlar omborida odatda matnli, raqamli va sana tipidagi maʼlumotlar saqlanadi. Maʼlumotlar ombori yaratishda uning kodirovkasi tanlanadi. Kodirovkani tanlash web saytda foydalaniladigan shrift turiga bogʻliq boʻladi. Web sayt tarkibida faqatgina maʼlumotlar omborida emas balki saytning barcha fallarining oʻz kodirovkalari mavjud. Agar sayt ingliz alifbosiga moʻljallangan boʻlsa utf-8 turidagi kodirovkadan foydalaniladi. Rus tili (Krill alifbosi) asosida yaratilgan Web sayt uchun windows-1251 kodirovkasidan foydalaniladi [9].

Ushbu muammoni yuzaga kelishining toʻrt sababi mavjud boʻlib, ular bilan tanishib chiqamizhamda muammoni hal etish mumkin [10].

Birinchi sabab. Sahifalarda foydalaniladigan kodirovka turi beriladi. Kodirovka turini tanlash uchun HTML belgilash tilining meta tegidan foydalaniladi [11].

Foydalaniladigan kodirovkani tanlashda quyidagi satrni sahifaning `<head>...</head>` tegi tarkibida berish lozim:


`<meta http-equiv="Content-Type" charset="windows-1251">`

Ikkinchi sabab. Agar muammo yuqoridagi usul orqali bartaraf etilmasa, u holda maʼlumotlar ombori kodirovkasi bilan sayt maʼlumotlari kodirovkasi mos kelmagan. Shuning uchun maʼlumotlar omboriga bogʻlanish jarayonida maʼlumotlar ombori maʼlumotlarini ham kerakli turdagi kodirovkaga oʻtkazish talab etiladi [12].

SET NAMES 'utf8'

Uchunchi sabab. Agar fayl kodirovkasi bilan sayt sahifasi kodirovkasi mos tushmasa sahifadagi maʼlumotlar tushunarsiz holatda namoyon boʻladi. Bunday holda muammoni bartaraf etish uchun fayl kodirovkasi bilan sayt sahifasi kodirovkasini mos ravishga keltirish kerak. Buning uchun Notepad++ matn muharriridan fayl kodirovkasini oʻzgartirish kerak. Notepad++ matn muharririning Kodirovka menyusidan kerakli boʻlgan kodirovka turini tanlang. Web saytlarda odatda «Кодировка в utf-8 без BOM» va «Windows-1251» kodirovkalaridan foydalaniladi. Agar web sayt Notepad++ matn muharririda yaratilayotgan boʻlsa, u odatda sahifalarni ANSI kodirovkasida yaratadi [13]. Shuning uchun har doim bu matn muharririda yaratilgan har bir sahifa kerakli turdagi kodirovkaga oʻtkazilishi kerak. Sahifa fayli kodirovkasi oʻzgartirish quyidagi rasmda koʻrsatilgan:

Toʻrtinchi sabab. Bu muammoni yuzaga kelishida yuqoridagi uch muammo ham sabab boʻlmasa, u holda muammo server tomonidan



1-rasm. Notepad++ matn muharriri.

tushunmovchilik asosida yuzaga keladi. Bu tushunmovchilikni bartaraf etish uchun sayt bosh katalogidagi serverga mo'ljallangan buyuruqlar fayli bo'lgan .htaccess fayliga kerakli turdagi ko'rsatma berilishi kerak [14]. .htaccess faylining yuqori qismiga quyidagi satrni yozish bilan kodirvka muammosini bartaraf etish mumkin:

AddDefaultCharset utf-8(yoki windows-1251)

Web sayt sahifalari mashtabi kattalashtirish va kichiklashtirish jarayonida uning ko'inishi buzilsa. Bunday holatlar yuzaga kelishi ba'zi saytlarda kuzatilishi mumkin. Bunday holatning yuzaga kelishida sayt tuzilmasini tashkil etuvchi HTML belgilash tili va CSS usullaridan noto'g'ri foydalanganligi sabab bo'ladi. Agar sayt dizayni jadval asosida yaratilsa bunday holat umuman kuzatilmaydi [15]. Biroq, jadvallardan foydalanish sahifa tashkil etuvchi teglar ko'payib ketadi ya'ni murakkablashib ketadi. Sahifani tashkil etuvchi kodlar hajmi kam miqdorda bo'lishi uchun HTML belgilash tilining `<div>...</div>` yoki `<span>...</span>` teglaridan foydalanish maqsadga muvoffiq. Bu ikki turdagi teglardan foydalanib Web sayt sahifalari yaratilishida bevosita ularni joylashtirish uchun CSS usullari selektoridan foydalanish kerak. Mazkur muammo ham aynan shu holatda yuzaga keladi. Bilamizki, brauzerlarning barchasi CSS usullarini qo'llab-quvvatlash jarayoni va ularning mosligi har xil kechadi. Shu fikrlarni inobatga olgan holatda brauzer turini yoddan chiqarmagan holda CSS usullari fayllarini yaratish mumkin [12]. Barcha brauzerlar uchun CSS usullarining mos holdagi attributlaridan foydalanish kerak. Biroq, Internet Explorer va Opera brauzerlari Mozilla Firefox Google, Chrome, Maxthon va Amigo brauzerlariga qaraganda biroz o'zgacha xususiyatga ega. Internet Explorer brauzerida CSS usullarining `float:left|right` va `margin:0 auto` qoidalarini ishlamas Opera brauzerida esa JavaScript tili va ba'zi bir CSS usullari qoidalaridan foydalanishda mutanosiblik kuzatiladi. Yuqoridagi ikki turdagi brauzerlarda yuzaga keladigan muammolarni inobatga olgan holda Web saytning sahifalarini namoyon bo'lishi va joylashuvini turli brauzerlar yordamida testdan o'tkazish kerak. Ushbu muammoni yechimi sifatida shuni aytish mumkinki: har bir brauzer turiga moslashtirilgan CSS usullari fayllarini yaratish kerak hamda ulardan brauzer turiga qarab tanlanadi. Bunday tanlovlarni HTML belgilash tili, PHP dasturlash tili yohud JavaScript tili yordamida amalga oshirish kerak. Bu jarayonda avval brauzer turi va versiyasi aniqlanib keyin esa unga mos bo'lgan CSS usullari fayllarini bog'lash kerak [16].

Web saytni yuklanishi tezligi past darajada bo'lsa. Bunday holatlar hozirgi kunda juda ham ko'p uchrab turadigan dasturiy muammolarga kiradi. Bu muammo barcha kompyuterlarda uchramasligi mumkin. Chunki, barcha viloyat va tumanlarda internet tezligi har xil va barcha foydalanuvchilar turli vositalar orqali internetga bog'lanadi. Shuning uchun dasturchi tomonidan sayt rasmlari va boshqaruvchilar tomonidan sayt ma'lumotlaridagi rasmlarning hajmini ixchamlashtirishi va ulardan kamroq foydalanishi natijasida bu muammoni yuzaga kelish hajmini minimumga tushirish mumkin. Qolaversa, web saytda multimediyali fayllardan ya'ni video va animatsion roliklardan foydalanmaslik talab etiladi. Ularning o'rniga gif turidagi animatsion rasmdan foydalanish sayt tezligi va ko'rkamligini oshirishda xizmat qiladi.

Web sayt sahifalarida JavaScript dasturlash tili ob'ektlaridan foydalanishda yuzaga keladigan xatoliklar. Web saytlarni yaratishda JavaScript tili va jQuery hamda AJAX texnologiyalaridan foydalanmaslikni iloji yo'qdir. Chunki, PHP dasturlash tili yordamida so'rov yuborilganda foydalanuvchi vaqti biroz ko'proq bajariladi bir so'z bilan aytganda sayt ishlashi sekinlashadi. PHP dasturlash tili klient-server texnologiyasi asosida harakatlangani uchun so'rovni server ko'rib chiqib klientga qaytaradi [17]. Bu bosqich jarayonni sekinlashishiga olib keladi. SHu turdagi jarayonlarni JavaScript tiliga asoslangan jQuery yoki AJAX texnologiyalari orqali bajarish mumkin. JavaScript tili yordamida sayt qismlarini bajarishda xatoliklar sodir bo'ladi. Bunga sabab JavaScript fayllari, kutubxonalari hamda funktsiyalarini ob'ekt bajarilishidan so'ng bog'langanligidadir. Shuning uchun JavaScript tili va u asosida yaratilgan texnologiyalardan foydalanilganda sahifaning yuqori qismida ya'ni JavaScript ob'ektlaridan oldin kerakli turdagi resurslarni boshlash darkor.

Texnik muammolari.

Texnik muammolar sayt boshqaruvchilarining e'tiborsizligi, brauzer normal holatda ishlamasligi hamda Internetga bog'lanishda yuzaga keladigan ba'zi bir holatlar sabab bo'ladi. Hozirgi kunda CMS texnologiyasiga asoslangan Web saytlarning ko'pchiligida sahifa topilmadi degan xabarlar kuzatish holatlari ko'proqdir. Chunki, ma'lum manbalar hamda ma'lumotlarni ma'lum bir menyuga yoki giperhavolaga biriktirilishida e'tiborsizlik va o'quvsizlik sabab bo'lmoqda. Ushbu texnologiyalardan foydalanuvchilar haqiqiy Web dasturchilar emas balki xavaskor dasturchilardir. Ushbu tadqiqot ishida quyidagi texnik muammolar taxlil qilinib, ularning yechimlari ko'rsatildi.

Giperhavolani bosganda mavjud sahifa topilmagan yoki ma'lumot bo'lmagan holatidagi muammolar. Bunday holatlar ko'p saytlarda kuzatiladi. Ayniqsa, bu turdagi muammolar elektron kutubxonalarda ko'proq uchraydi. Bu turdagi muammolarni yechimi faqatgina saytdagi keraksiz menyular, bo'limlar va sahifalarni o'chirib faqat kerakli ma'lumotlarni saqlash kerak. CMS texnologiyasini o'rnatish jarayonida sayt ma'lumotlari sifatida demo-ma'lumotlardan foydalanilmasa bunday muammolar yuzaga kelish qatlamli qisqaradi.

Faqat ma'lum Web resurslarda yuzaga keladigan muammolar. Ko'z o'ngizda quyidagi muammolardan biri namoyon bo'lsa, bu Firefox (yoki boshqa turdagi brauzer) keshi bilan aloqador bo'lgan muammodir:

- ✓ Bog'lanish to'xtatildi
- ✓ Bog'lanish bekor qilindi
- ✓ Bog'lanishning kutish vaqti tugadi

Firefox keshini tozalashga urinib ko'ring. Agar sizda muammo yuzaga kelgan bo'lsa, quyidagi qadamlarni bajaring so'ngra Web saytni qayta yuklang:

1. Firefox brauzerining yuqori qismida joylashgan Firefox tugmasi bosiladi va u yerdan Jurnal menyusiga kirib so'ngra Стереть недавнюю историю (So'ngi xotirani tozalash) tugmasi tanlanadi.
2. Hosil bo'lgan oynaning "Очистить" (Tozalash) maydonidan "Все" (Barchasi) tanlanadi.
3. "Подробности" (Batafsil) bo'limida joylashgan ro'yxatdan kerakli bo'lgan kuki va keshni tanlanadi. Agar barchasi tanlangan bo'lsa qolgan maydonlardan belgilarni olib tashlanishi kerak.
4. "Очистить сейчас" (Hozir tozalash) tugmasini bosiladi.

Agar Firefox brauzeri keshini tozalanmasa, u holda muammo albatta web sayt bog'liq hisoblanadi. Bunday hollarda muammo bartaraf etilmagunicha faqat kutishga to'g'ri keladi. Katta hajmdagi web saytlarda bunday muammo yuzaga kelsa, saytni yuklash uchun bir necha daqiqa vaqt sarf etiladi.

Muammo faqatgina ma'lum (Firefox) brauzerda yuzaga kelsa. Agar boshqa brauzer normal holatda ishlayotgan bo'lsa, quyidagi yechimlardan birini qabul qilish mumkin:

- ✓ Boshqa turdagi brauzerlarda barcha saytlardan foydalanishda hech qanday muammo yuzaga kelmasada, biroq Firefox orqali hech qanday saytga kira bo'lmasa.
- ✓ Firefox yangilangandan so'ng Web saytlar bilan bog'lanib bo'lmayabdi – demak, brauzeringiz yangilangandan so'ng saytga bog'lanishda muammo mavjud.

Saytga bog'lanib bo'lmasa. Agar quyidagi xatolik to'g'risidagi xabarlardan biri namoyon bo'lsa, Firefox Internetga bog'lanishni proksi-server orqali bajarishga harakat qilmoqda:

- ✓ Proksi-server bog'lanishni rad qilmoqda.
- ✓ Proksi-server topib bo'lmadi.

Bu muammolarni bartaraf etish uchun proksi-serverni sozlang yoki proksi-server parametrlari qaytadan tekshirib ko'rish kerak:

1. Firefox brauzerining yuqori qismida joylashgan Firefox tugmasini bosiladi va u yerdan "Настройки" (Sozlashlar) menyusidan Настройки (Sozlashlar) bandi tanlaniladi.
2. "Дополнительные" (Qo'shimchalar) panelini tanlash kerak.
3. Undan Сеть (Tarmoq) bo'limini tanlaniladi.
4. Соединение (Bog'lanish) bo'limidan Настроить (Sozlash) tugmasi bosiladi.

5. Proksi-server parametrlarini o'zgartiri kerak:

- ✓ Internetga proksi-serversiz bog'lanish holatida (yoki Internetga proksi-server orqali bog'lanish bilimi mavjud bo'lmasa) Без прокси (Proksisiz) maydoni tanlanadi.
- ✓ Agar Internetga bog'lanishni proksi-server orqali amalga oshirish kerak bo'lsa «Ручная настройка сервиса прокси» (Proksi xizmatlarini sozlash) bo'limini tanlaniladi va HTTP proksi maydoniga proksi-server IP manzilini kiritiladi. Port maydoniga esa server porti raqamini kiritiladi. Ushbu proksi-server orqali Internetni boshqa bayonnomalari orqali ham bog'lanishni ehtiyoji bo'lsa «Использовать этот прокси-сервер для всех протоколов» (Ushbu proksi-serverdan boshqa bayonnomalarda foydalanish) maydoniga belgi qo'yiladi.

6. Параметры соединения (Bog'lanish parametrlari) oynasini OK tugmasini bosib so'ngra oynani yopish kerak.

Uslubiy muammolar

Web saytlarda uslubiy muammolar web sayt maqsadi aniqlanmagan va web sayt tuzilmasi ishlab chiqilmagan holatlarda yuzaga kelishi mumkin.

Uslubiy muammolarni bartaraf etish orqali web sayt foydalanuvchilari auditoriyasini kengaytirish mumkin. Chunki, web sayt tuzilmasi ya'ni menyu hamda bo'limlari to'g'ri joylashmagan va to'g'ri taqsimlanmaganligi sababli ularning saytdan foydalanishi noqulay kechadi. Web saytlarda quyidagicha uslubiy muammolar uchrab turadi.

Sayt bo'limlari va menyusini ichma-ichligi. Bunday muammolar juda ko'p saytlarda uchrab turadi. Ayniqsa, ularni ijtimoiy tarmoqlarda hamda muassasalarning rasmiy saytlarida kuzatish mumkin. Web saytlarning bu muammosini hal etish uchun quyidagi andoza asosida tizimlashtirish tavsiya etiladi. Sayt menyusini tarkibida bosh sahifa, yangiliklar, biz haqimizda, qayta aloqa (Контакты) va sayt haritasi kabi bo'limlar hamda qidiruv tizimi bo'lishi kerak. Agar saytda klublar, kurslar, maqolalar, e'lonlar, mahsulotlar, tadbirlar kabi bo'limlar bo'lsa, ularni alohida qismga ierarxik ravishda joylashtirish kerak. Yuqoridagi aytilgan amallar orqali foydalanuvchilar o'ziga kerakli bo'lgan bo'limga kirib o'z faoliyatini yuritishi mumkin.

Web saytda matnlari foydalaniladigan rang turlari. Web saytlarga e'tibor bilan nazar tashlasak ayniqsa multimediya portallari va ijtimoiy tarmoqlarda ortiqcha ranglardan foydalaniladi. Web sayt matnlari rangi qanday bo'lishi kerak? Shunday savollarga quyidagicha javob aytamiz. Web sayt matnlarining asosiy rangi web sayt dizayniga mos keladigan rangdir. Bu rangni dizayner va buyurtmachi birgalikda tanlashlari tavsiya etiladi. Sayt asosiy matnidagi tashqari xatolik va biror jarayonni bajarish haqidagi xabar matnlari mavjud. Xatolik matnlarini qizil va unga turdosh bo'lgan rangda, boshqa xabarlar esa yashil va unga yaqin bo'lgan ranglarda ifodalash tavsiya etiladi. Har qanday web saytda uch turdagi rangdan foydalanish orqali Web sayt dizayni nomal holatda bo'ladi. Agar matn ranglari va dizayn ranglari soni ko'p bo'lsa Web sayt bachkanalashib boradi.

Ro'yxatga olish formasi maydonlarini soddalashtirish. Hozirgi kunda deyarli barcha saytlarda ro'yxatga olish, avtorizatsiya va shaxsiy kabinet tushunchalari mavjud. Ro'yxatga olish bu web sayt va ma'lum maqsadga yo'naltirilgan tizimlardan foydalanish huquqini olish demakdir. Avtorizatsiya deganda foydalanuvchiga berilgan parametrlar bo'yicha joriy tizimda harakat qilishi vaqti vadavri tushiniladi. Foydalanuvchi qachonki ro'yxatdan o'tgandan so'ng avtorizatsiyadan o'tishi mumkin. Ro'yxatga olingan foydalanuvchiga berilgan login va parol orqali tizimga avtorizatsiya oynasi orqali kirib tizimda belgilangan amallarni bajarishi mumkin. Foydalanuvchi o'zining shaxsiy ma'lumotlarini va kirish parametrlarini sozlashi uchun tizimdagi shaxsiy kabinet bo'limidan foydalaniladi. Hozirgi kundagi web saytlarning Ro'yxatga olish (Registration) formasi maydonlari haddan ziyod ko'payib va murakkablashib bormoqda. Bu foydalanuvchini saytdan foydalanish imkoniyatiga to'siq qo'ymoqda. Chunki, barcha shaxslar ham kompyuterdan foydalanish bo'yicha professional emas shuning uchun maydonlarni to'ldirishga uquvi va sabri yetmaydi. Shu sababli ham maydonlari ko'pligi tufayli boshqa sayt yoki tizimdan foydalanishadi. Saytlarning ro'yxatga olish formasida quyidagi maydonlar bo'lishligi yetarli.

Ro'yxatga olish formasida foydalanuvchi logini, foydalanuvchi elektron pochta manzili, foydalanuvchi paroli va parolni tasdiqlash maydonlarini mavjudligi yetarli. Saytdan foydalanish

xavfsizligini oshirish maqsadida joriy formaga tasoddiy belgilarni oʻzida aks etgan CAPTCHA maydonini qoʻshib qoʻyish mumkin. Foydalanuvchiga tegishli boʻlgan shaxsiy, ijtimoiy va faoliyatiga tegishli boʻlgan maʼlumotlarni roʻyxatdan oʻtib avtorizatsiya qilinganidan soʻng kiritilishi maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar

- [1]. F.Polvonov, J.Axmataliyev. Onlayn tizimlarini yaratishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish masalalari. //«Iqtidorli talabalar, magistrantlar, katta ilmiy xodim-izlanuvchi va mustaqil tadqiqotchilar» ilmiy-amaliy anjumani materiallari. Fargʻona.:2014 – 79-80 bet.
- [2]. Muxammadjon oʻgʻli, N. R. (2022). MEDIA PORTAL YARATISHNING ASOSIY AFZALLIK VA KAMCHILIKLARI. World scientific research journal, 10(2), 125-131.
- [3]. Muxammadjon oʻgʻli, N. R., & Alisher oʻgʻli, A. S. (2022). NOSQL MAʼLUMOTLAR BAZASI VA UNING ASOSIY PRINSIPLARI. Journal of new century innovations, 15(2), 44-47.
- [4]. Muxammadjon oʻgʻli, N. R., & Alisher oʻgʻli, A. S. (2022). MAʼLUMOTLAR BAZASIDA MURAKKAB QIDIRUV TIZIM USULLARI VA ALGORITMLARI. Journal of new century innovations, 15(2), 38-40.
- [5]. Muxammadjon oʻgʻli, N. R., Mavlonjon oʻgʻ, M. J. M., & Erali oʻgʻ, T. Y. A. (2022). TIBBIYOTDA QOʻLLANADIGAN ZAMONAVIY KOMPYUTER TIZIMLARI KLASSIFIKATSIYASI.
- [6]. Muxammadjon oʻgʻli, Nabijonov Ravshanbek, Mamirxoʻjayev Muxammadamin Mavlonjon oʻgʻ, and Toʻychiboyev Abbosjon Erali oʻgʻ. "TIBBIYOTDA QOʻLLANADIGAN ZAMONAVIY KOMPYUTER TIZIMLARI KLASSIFIKATSIYASI." (2022): 136-142.
- [7]. Muxammadjon oʻgʻli, Nabijonov Ravshanbek, Mamirxoʻjayev Muxammadamin Mavlonjon oʻgʻ, and Toʻychiboyev Abbosjon Erali oʻgʻ. "ZAMONAVIY TIBBIYOTDA QOʻLLANADIGAN STATISTIK MAʼLUMOTLARNI KOMPYUTER YORDAMIDA QAYTA ISHLASH ALGORITMLARI VA DASTURLARI." (2022): 147-158.
- [8]. Muxammadjon oʻgʻli, N. R., Mavlonjon oʻgʻ, M. J. M., & Erali oʻgʻ, T. Y. A. (2022). ZAMONAVIY TIBBIYOTDA QOʻLLANADIGAN STATISTIK MAʼLUMOTLARNI KOMPYUTER YORDAMIDA QAYTA ISHLASH ALGORITMLARI VA DASTURLARI.
- [9]. Kodirov, E., Muxammadjonov, X., & Turgunov, B. (2019). INDUSTRIAL "INTERNET OF THINGS": THE BASIS OF DIGITAL TRANSFORMATION. Теория и практика современной науки, (9), 3-5.
- [10]. Nafisaxon, T. U., Jamshidbek Toʻxtasin oʻgʻ, U., Arsenevna, D. E., & Azimjon oʻgʻli, A. O. (2022). AVTOMATLASHTIRILGAN AVTOTURARGOH IMKONIYATLARI VA QULAYLIK LARI. INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 3(25), 45-48.
- [11]. Ismoilxon oʻgʻli, Ergashev Otabek, Shokirov Ismoilxon Ergashevich, and Xontoʻrayev Sardor Isroilovich. "TOIFALANGAN OBʼEKTlarda AXBOROTNI HIMOYA QILISH TIZIMLARI VA VOSITALARI." Journal of new century innovations 11.1 (2022): 100-109.
- [12]. Nafisakhon, T., & Axrorbek, R. (2022). MODERN SOLUTIONS OF PARKING AUTOMATION. Journal of new century innovations, 11(1), 110-116.
- [13]. Khonturaev, Sardorbek, and Shohida Eshmatova. "Saving environment using Internet of Things: challenges and the possibilities." Современные образовательные технологии в мировом учебно-воспитательном пространстве 8 (2016): 152-157.
- [14]. Khoitkulov, A. A. (2021). Improving Organizational And Economic Mechanisms To Increase The Power Of Textile Enterprises. The American Journal of Management and Economics Innovations, 3(03), 7-10.
- [15]. Умаров Ш. Выражение вторичных многочленов спектральными коэффициентами //Engineering problems and innovations. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 20-26.
- [16]. АКБАРОВ Д. Е., УМАРОВ Ш. А. АВТОМАТИКА И ПРОГРАММНАЯ ИНЖЕНЕРИЯ //АВТОМАТИКА И ПРОГРАММНАЯ ИНЖЕНЕРИЯ Учредители: Новосибирский институт программных систем. – №. 2. – С. 29-33.
- [17]. Abdimahamatovich H. A, & Anatolyevich, O. V. (2022). SANOAT KORXONALARINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI. Journal of new century innovations, 11(1), 195-202.

FIZIKA FANI BOʻYICHA TALABALARNING ILMIY-TADQIQOT FAOLLIGINI OSHIRISHDA TRACKER ILOVASIDAN FOYDALANISH

A.D. Dilshodov, E.I. Xayitboyev, S.R. Muhammadjonov

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Fargʻona filiali

e-mail: addilshodov@gmail.com

(Qabul qilindi 16.02.2023 y.)

Ushbu maqolada fizika fani boʻyicha talabalarning ilmiy-tadqiqot faolligini oshirishda Tracker